



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

28 FEVRAL
№25

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Абидова Зайнаб Қадирбергановна, Мадаминов Жавлонбек Ганжаевич ХОРАЗМ ВОҲАСИДА СУВ БИЛАН БОҒЛИҚ КУЛЬТЛАР ВА МАРОСИМЛАР	7
2. Xolova Ozoda Ne'matullayevna TARIX FANINNG BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA BOBOLARIMIZNING TARIX FANIDAGI AASARLARI	9
3. Рахимова Г. С. ҚОРАҚОЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ САНОАТИДАГИ МУАММОЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТГА ТАЪСИРИ	10
4. Mingbayeva Feruza Mamarajabovna, Umbarov Xasan Raxmonovich INSONIYAT SIVILIZATSİYASIDA MUQADDAS “AVESTO” VA ZARDUSHTIYLIK TA’LIMOTINING O’RNI	13
5. Pardayeva Shaxriniso Turayevna, Sariyeva Gulnora Irgashevna O’RTA OSIYO VA YEVROPA MEZOLIT DAVRI MADANIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	15
6. Eshova Zilola Qodirovna, Ibrohimova Zilola Raxmatovna “TEMUR TUZUKLARI” –MILLIY DAVLATCHILIGIMIZ TARIXINING NA’MUNASI MAVZUSINI O’QITISH TEXNOLOGIYASI	17



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

ХОРАЗМ ВОҲАСИДА СУВ БИЛАН БОҒЛИҚ КУЛЬТЛАР ВА МАРОСИМЛАР

Абидова Зайнаб Қадирбергановна
т.ф.д. (PhD) ТТА Урганч филиали
“Ижтимоий фанлар” кафедраси мудири
Мадаминов Жавлонбек Ганжаевич
Хоразм вилояти Ҳазорасп туманидаги
44-сонли ўрта умумтаълим мактаби
“Тарих” фани ўқитувчиси
Email: zaynab_74_2011@mail.ru
Телефон: +998914219838

Аннотация. Мақола Хоразм воҳасида сув ва намгарчилик билан боғлиқ культлар ва урф-одат ҳамда маросимларга бағишлиган бўлиб, унда асосан воҳадаги урф-одат ва маросимларнинг ўзига хослиги республикамизнинг бошқа худудлари билан қиёсланган ҳолда ёритилган.

Калит сўзлар. Саҳро, сув, культ, урф-одат, маросим, Анахита, Анбар она, Хубби.

Кириш. Маълумки қадим замонлардан буён Ўрта Осиё халқлари, хусусан саҳро қуршовида қолган Хоразмликлар ҳаётида сув муқаддас саналган. Чунки дехқонлар учун хосилдорликни яхши бўлиши, чорвадорлар учун яйловларда ўт-ўланларни ўсиши, улар ҳаётининг тўкин-сочин бўлишини таъминлаган албатта, буларнинг барчаси об-ҳавонинг қандай келишига боғлиқ бўлган. Бу эса асрлар давомида Ўрта осиё халқларида сув билан боғлиқ турли илоҳалар, урф-одат ва маросимларни пайдо бўлишига сабаб бўлган.

Масаланинг мазмуни. Хоразм воҳасида сув ва намгарчилик билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар ўзининг узоқ тарихига эга бўлиб зардуштийликнинг муқаддас китоби Авестода ер, сув ва хосилдорликнинг илоҳаси деб «Анахита» талқин қилинган. Унинг номи “покиза”, “илоҳий софлик” маъносини англатади.¹ Геродот эса уни “Табит” деб атаган². Манбаларда «Анахита доимо гўзал бақувват, хушқомат, камарини баланд боғлаган, олтин зийнатли кўп бурмали мурсак кийган бир киз сифатида таърифланади»³. Зардўштийлик даврида унга аталган гимнлар, қасрлар ва ҳайкаллар мавжуд бўлган бўлса⁴, айрим манбаларда кўрсатилишига унга атаб хатто одамлар ҳам қурбон қилинган⁵. Кўпчилик манбаларда Анахита Осмон сувлари яъни булат ва ёғингарчиликлар илҳаси деб талқин қилинса⁶, айрим муаллифлар уни ердаги оқин сувларининг культи билан боғлашади⁷.

Ўрта Осиё халқларида ёмғир чақириш билан боғлиқ турли урф-одат ва маросимлар ҳам мавжуд бўлган. Ушбу маросимлар турли жойларда турлича шаклда ва ҳар-хил номлар билан қайд этилади. Бундай маросимлар Қашқадарё вилоятида «Суз хотин», «Чайла қозок»,

¹ Ҳамидулла Кароматов. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. Т-2008. 317 бет

² “Таб”- нур, ярқираш.

³ Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи, 1-китоб. Т. 1965й. 44-бет.

⁴ Гафуров Б.Г. История таджикского народа. М. 1955. С.39.

⁵ Жавлиев Т. Табиат инсон ва дин. Т. 1986. 45-бет.

⁶ Беленицкий А.М. О домусульманских культурах Средней Азии. Краткие сообщ., института истории и материальной культуры. Вып 28. М., 1949. С.84-85; Богомолова К. Следы древнего культа воды у таджиков // ИООН. Вып II, Сталинабад, 1952. С. 120.

⁷ Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихидан. Т. 1959; Толстов СП. Древний Хорезм. М. 1948; Снесарев Г.И. По следам Анахиты // СЭ. 1971. №4. С. 153-165.



Сурхондарёда «Бўз хотин», «Суст хотин», Зарафшон вохасида «Сус хотин», Туркистонда «Чой момо» Хоразмликларда бу вазифани ўтаган Анбар-она Хоразмда исломни тарқатган Ҳаким ота рафиқаси ҳисобланиб, олимлар “аёллар диний эътиқоди”, деб аталган йўналишда у Анахитанинг меросхўри сифатида мужассамлашган.¹

Хоразм мифологиясида сув илоҳаси Анбар-она бўлиб, унинг дарё тубида яшовчи ўғли Эр Хубби – Амударё сувларининг хўжайини бўлган. Анбар она ва ўғли хақида ҳалқда турли ривоятлар юради. Ривоятларга кўра унинг ўғлини самовий сувлар илоҳаси ўғирлангандан кейин Анбар – она бир вақтнинг ўзида Эр Хуббининг онаси ва самовий сувлар илоҳаси сифатида гавдаланган.

Кўпчилик олимларнинг ушбу культ исломга мавжуд бўлганлигини қайд этади². Бу хақда академик Я.Ғуломов қуидагиларни ёзди: «Табиийки ислом дини ёйилгандан сўнг ҳам ҳалқ исломгача бўлган сув худоси Хубби хақидаги афсонани сақлаб қолди натижада у мусулмон агиографик адабиётига кириб келди»³. Юқорида келтирилган ҳар иккала культ ҳақида фолклоршунос Б.Саримсоқов ҳамда У.Жуманазаровлар ўз изланишларида қимматли маълумотларни келтирадилар⁴. Хубби культига сифиниш нафакат Хоразм худудида, балки Ўрта Осиёнинг деярли барча худудларида, хусусан Фарғона водийсида ҳам учрайди. Водийнинг Сўх тумани дехқонлари эрта баҳорда ариқларга сув очишдан олдин дарё бўйида турли жонликлар сўйиб Эр Хубби культига атаб қурбонлиқ қилишган бу ерда эр хуббини «йигит хубби» деб аташган⁵. Дарё ва сой бўйларида қурбонликлар келтириш Ўрта Осиёнинг бошқа худудларида ҳам мавжуд бўлган⁶.

Хуроса. Юқоридаги маълумотлардан қўринадики Хоразмда сув билан боғлиқ культ ва маросимлар ўзининг узок тарихига эга бўлибгина қолмай, балки Ўрта Осиё ҳалқларининг маънавий меросини ажралмас ва бебаҳо дурдона сифатида бойитади.

1 амидулла Кароматов. Ўзбекистонда мозий эъти одлар тарихи. Т-2008. 323 бет

2 Залеман К.Г. Легенда о Ҳаким-ота // Известия ИМ АН. Серия V. Т.IX. СПБ. 1889, №2, С. 114.

3 уломов Я. . Хоразмнинг су орилиш тарихидан. Т. 1959 йил 32-бет.

4 Жуманазаров У., Саримсо ов Б. «Сувга си иниш а ида айрим айдлар» // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990.

№4. 54-58-бет.

5 Джахонов У. Земледелие таджиков долины Соха (в конце XIX - нач. XX в.) Душанба. 1989. С. 112.

6 Мухиддинов И. Обряды и обычай, связанные с земледелием, у памирских таджиков Вахана и Ишхашима в конце XIX-нач. XXв. Материалы кисторико-этнографическому Атласу народов Средней Азии и Казахстана. с. 106-107.



TARIX FANINNG BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA BOBOLARIMIZNING TARIX FANIDAGI AASARLARI.

Xolova Ozoda Ne'matullayevna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
24-umumiy o'rta ta'lif maktabi
Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya; ushbu maqolada tarix fanining bugungi kundagi ahamiyati, tarix fanida yozilgan bobolarimizning asarlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar; tarix, o'tmish, arxeologik, madaniy yodgorlik.

Tarix - o'tmish voqealar haqida axborot ochish , yig'ish, tartiblashtirish va namoyon etish bilan birga shug'ullanuvchi fan. Tarix bilan shug'ullanuvchi olimlar tarixchilar , deb ataladi. Tarix fani voqealar ketma - ketligini tahlil etadi va ularning sabab va samaralarini tizimlashtiradi. Tarix fani-insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqe - hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivoji) yaxlit bir tarzda o'rrganad. Hozirgi zamon tarix fani alohida bo'lmlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuidir. Ixtisoslashish darajasiga ko'ra, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni jamiyatning (jamiyatning jahon tarixi) butun va alohida tomonlarini o'rghanuvchi bo'lim va sohalar tashkil qiladi. Insoniyat tarixining ayrim hodisalari alohida o'rGANILADI. Jahon tarixi ibtidoiy jamiyat tarixi, o'rta asrlar tarixi , yangi va eng yangi tarixga bo'linadi. Tarix fanining tarixini tarixshunoslik fani o'rGANADI. Tarix fani asrlar davomida qo'lyozma asarlarda ifodalangan maishiy hayot, voqe -hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyan tarixiy kontekstda tarixiy hayot yo'lining shakllanishi, bosqichlari va umumiylarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo'lni bosib o'tdi. O'zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorligi va arxeologik topilmalar ma'lumot beradi. Milloddan avvalgi 1- mingyillikka oid yozma manbalar, zardushtiyarning muqaddas Avesto kitobida , ahamoniylar davri manbalarida (Behistun,Naqshi Rustam va boshqalar) Turon va Movorounnahrning tabiatni, xalqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonning qadimgi tarixi haqida Geredot, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek, xitoy, arman, arab mualiflari yaratgan yozma manbalarda ma'lumotlarni uchratish mumkin. Asrlar davomida O'zbekiston siyosiy , iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy xayoti tarixi haqidagi ma'lumotlar saroy - yilnomachilar, tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan yozilgan qo'lyozma manbalar shakllana bordi. O'rta asrlar tarixnavisligida sulolaviy tarixga bag'ishlangan. Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy ", Nasaviyning "Siyrat as- Sulton Jalol ad-Din Mankburni ", Nizomiddinning "Zafarnoma" Sharafiddin Al Yazdiyning " Zafarnoma ", Hofiz Tanish Buhoriyning " Abdullanoma" Hofiz Tanish al Buhoriyning "Abdullanoma" Muhammad Amin Buhoriyning "Ubaydullanova" kabi asarlari yaratildi. Bu qo'lyozma asarlari o'z davrining ilg'or fikrli kishilari tomonidan yozilgan bo'lsa-da, o'sha davrdagi hukmdorlar ra'yidan o'tolmasdan, ularning manfaatlariga moye qilib yozilganligini,o'z davri va muhiti, zamonasi tartiblari, taraqqiyot darajasi tafakkurining xos ko'rinishlari ta'sirini namoyon qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirliklar Mahkamasining " O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish"haqidagi 1998y iyul qarori tarix fanining vazifalarini strategik jihatdan o'zgartirdi.Tarix instituti respublikada tarix tadqiqotlarini muvofiqlashtiruvchi chinakam markaz mqomiga ko'tarildi. "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" konsepsiysi ishlab chiqildi. Mustaqillik davrida "O'zbekiston tarixi" jurnaliga asos solindi. O'zbekiston Respublikasi tarixchilar jamiyatini tuzildi. Bu esa yurtimizda har bir sohaga bo'lgan e'tiborning namunasi hisoblanadi. Zero, tarix-xalqimiz ma'naviyatining asosidir.



УДК 63(93)

ҚОРАҚОЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ САНОАТИДАГИ МУАММОЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТТА ТАЪСИРИ.

Рахимова Г. С.

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), доцент

Кўқон давлат педагогика институти Миллий гоя,

маънавият асослари ва хуқуқ таълими кафедра мудири

Аннотация. Мақола XX асрнинг 40-80 йилларида Қорақалпоғистон Республикасида харбий, кимё ва пахта тозалаш саноат корхоналарининг шаҳарга марказларига, аҳоли гавжум ҳудудларга жойлаштирилиши, саноат корхоналаридаги ишлаб чиқариш маҳсулотларининг собиқ иттифоқ манфаатлари учун хизмат қылгани тарихий манбалар асосида баён этилган. Ишлаб чиқаришнинг тез суръатларда бажарилиши саноат корхоналарининг моддий техник базаларига эътиборсизлиги, техник ускуналарнинг етишмаслиги оқибатида, саноат корхоналарининг чиқиндилиари атроф-муҳит, Орол денгизи сув таркиби ва аҳолига етказган зарарлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: саноат корхоналари, атроф-муҳит, инсонлар, ишлаб чиқариш, сув, тупроқ, саломатлик, атмосфера ҳавоси, касалланиш.

ВЛИЯНИЕ ПРОБЛЕМ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКИСТАН НА ЭКОЛОГИЧЕСКУЮ СИТУАЦИЮ.

Рахимова Г. С.

Доктор философии по истории (PhD), доцент

Кокандский государственный педагогический институт,

заведующий кафедрой национальной идеологии, основ

духовности и правового воспитания

Аннотация. В данной статье 40-80-е годы XX века в Республике Каракалпакстан располагалось военная, химическая и хлопкоочистительная промышленности в городских центрах густонаселенных районах, но промышленная продукция обслуживало интересы бывшего Советского Союза. Быстрое внедрение производства связано с запущенностью материально-технической базы промышленных предприятий, отсутствием технической оснащенности, отходами промышленных предприятий на окружающую среду, водностью Аральского моря и нанесением ущерба населению.

Ключевые слова: промышленные предприятия, окружающая среда, люди, производство, вода, почва, здоровье, атмосферный воздух, болезнь.

IMPACT OF PROBLEMS IN THE INDUSTRY OF KARAKALPAKISTAN ON THE ENVIRONMENTAL SITUATION

Rakhimova G. S.

Doctor of Philosophy in History (PhD, docent

Kokand State Pedagogical Institute, Head of the

Department of National Ideology, Foundations of

Spirituality and Legal Education

Abstract. In this article, the 40-80s of the twentieth century in the Republic of Karakalpakstan located the military, chemical and cotton-ginning industries in the urban centers of densely populated areas, but industrial products served the interests of the former Soviet Union. The rapid introduction of production is associated with the neglect of the material and technical base of industrial enterprises, lack of technical equipment, industrial waste on the environment, the water content of the Aral Sea and damage to the population.

Keywords: industrial enterprises, environment, people, manufacturing, water, soil, health, atmospheric air, disease.



Глобал иқлим ўзгаришлари туфайли Марказий Осиёнинг аксарият мамлакатларида тупроқ емирилиб, унумдор ерлар қисқариб, чўлланиш, сув тақчиллиги, курғоқчилик, аҳолини ичимлик суви билан таъминлаш жиддий муаммога айланмоқда. [1] Қорақалпоғистон ҳудудлари Орол денгизининг фожеалари билан боғлиқ иқтисодий ва ижтимоий-экологик муаммоларнинг гирдобига тушиб қолди. Бир вақтлар балиқчилик, чорвачилик соҳаларга етакчилик қилиб келган Қорақалпоғистон Республикаси ҳозирда ҳамманинг кўз ўнгидаги экологик муаммолар марказидек англамоқда. Орол денгизининг куриши нафақат Ўзбекистон балки, бутун Марказий Осиё давлатлари табиити, табиии ресурслари ва аҳолиси ижтимоий ҳаётига жуда катта зарба берди.

Қорақалпоғистон Республикаси иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий жиҳатдан иккинчи жаҳон уруши йилларида етакчи ўринларда бўлиб келган. Иқтисодий соҳанинг тараққий этишида унинг табиии ресурслари катта аҳамият касб этарди. Дехқончилик, балиқчилик ва шоликорлик ҳудуднинг тириклини манбаи бўлиб хизмат қилди. Бундай ривожланишида Орол денгизи Қорақалпоғистонинг иқтисодий ва ижтимоий ҳаётини гуллаб яшинашида кучли имкониятларни яратган. Ишлаб чиқаришда саноат соҳасини жадаллик билан ривожланишида ҳам Орол денгизи муҳим манба бўлиб келди.

Қорақалпоғистон Республикасининг ижтимоий, экологик муаммолари билан жуда кўплаб олимлар тадқиқот олиб борган. Қорақалпоғистон АССРнинг экологик муаммолари барча соҳалардаги тадқиқотчиларни илмий изланишларни олиб боришига сабаб бўлмоқда. Жумладан, З.Курбанова, К.Бектемиров, М. Т. Турымбетова, М.К.Сарибаев, А.Абдукамолова, Ш.К.Нарбаев ва бошқа[2] тадқиқотларида ижтимоий-экологик муаммолар билан боғланган маълумотларни кўриш мумкин.

Жумладан, тадқиқотчи Ш.Норбоев: “Қорақалпоғистон Республикасидаги экологик муаммолар аҳолининг чорвачилик соҳасида чорва ҳайвонларни ем-хашаксиз, сувдан касалланиши, дехқончилик соҳаларида эса ўсимликни тупроқдаги табиии унумдорлик йўқлиги боис ўсимликларни нобуд бўлишига сабаб бўлган. Жанубий Оролбўйи, Ромитан, Мўйноқ туманларида ижтимоий муаммолар иқтисодий инқизорзга сабаб бўлди”[3] -дея ўз тадқиқотларида маълумотларни ёритиб берган.

Оролбўйи ва Қорақалпоғистон ҳудудларида экологик вазиятнинг ёмонлашуви аҳолининг саломатлигида иммунитетнинг пасайишига олиб келган. Инсониятдаги иммун тизими ҳар қандай касалликга қарши курашувчанлиқдир. Бу тизимни йўқолиши инсоннинг атроф-мухитдаги турли юқумли касалликларга тез чалиниши билан белгиланади. Ҳудуд шундай ҳолатлар Қорақалпоғистон Республикасининг янги туғилаётган болаларида тез кўзга ташланган.[4] 1989-1990 йилларда Қорақалпоғистон Республикасида аҳолининг турли касалликлар билан оғриб келиши 52.4 фоиздан 72.6 фоизгача ташкил этди. Улар орасида аёллар 80 фоизни ташкил қилди. Кўпроқ аёллар орасида камқонлик, онкологик, эндокриник ва рак касалликлари кўпроқ учраган.[5]

Қорақалпоғистон Республикасидаги ижтимоий экологик муаммолар ҳақида кўплаб изланишлар олиб борилган. Айниқса экологик муаммолар долзарб масалалардан эканлигини, муаммони бартараф этиш масалалари, табиат билан жамият ўртасидаги таъсир ва уларнинг оқибатида вужудга келадиган муаммолар, Ўрга Осиёдаги ижтимоий экологик муаммолар ҳақида батафсил ёритиб берилган. Жумладан, Йоханн Линн томонидан қуидидаги фикрлар билдирилган, Ўзбекистондаги экин майдонларининг қисқариб бориши, саноат чиқиндиларидан, Орол денгизининг тузидан Хоразм, Самарқанд вилоятларидағи кўплаб экин ерлар майдони сифатсиз бўлиб қолди.[6]

1936 йил 5 декабрда Қора-Қолпоғистон АССР Ўзбекистон ССР таркибига киритилган. Аҳоли кўпроқ балиқчилик, чорвачилик ва шоликорлик билан шуғулланиб келган. Саноат тараққиётида металлга ишлов бериш, кимё, нефть ва пахта тозалаш саноат корхоналари фаолият кўрсатиб келган. Минтакада саноат корхоналари қишлоқ хўжалигида пахта етиштириш билан боғлиқ хом ашёни қайта ишловчи саноатига мослаштирилганди. Масалан пахта(пахта тозалаш, йигириув, мойни қайта ишлаш заводлари), балиқ (консервалаш, қадоқлаш заводлари), чорвачилик(чарм, појфзал ишлаб чиқариш корхоналари) ва уй-жой курилиши материаллари, таъмирлаш, озиқ-овқат корхоналари ишлаб келган.

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги саноатида техник таъминотлар танқис бўлди. Пахта далаларида ерга ишлов бериш ва пахтани культивация қилиш, дефоляция, териш ишлари аҳоли қўл меҳнати эвазига амалга ошириларди. 1965 йилда Қорақалпоғистон совхозларида



илмий-техник базалар етарли бўлмади.[7] Шунинг учун қишлоқ хўжалиги саноат мажмуалари ривожланмаган. “Узсельхозтехника” тракторларни таъмирлаш корхоналарида техник ускуналар етишмасди. Саноат корхонларнинг техник таъминотидаги танқислик корхона чиқинидарини заарлантириш жараёнларини тўхтаб қолиши, чиқиндиларни Сирдарё сувига ташлаб келиши эса, сувнинг сифатига катта салбий таъсир этганди. 1968 йилда Қорақалпоғистон АССРдаги пахта тозалаш, озиқ-овқат саноат корхоналари чиқинди сувини Сирдарё ҳавzasига ташлаб келинган. Натижада, Қорақалпоғистон АССРдаги кўплаб сувл сифати ўзгарди. Ернинг шўрланиши ва атмосферанинг ифлосланиши ортиб борган.

Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудларидағи ҳарбий кимёвий қуролларни синовдан ўтказиш полигонлари ўзтаъсирини табиатдаги ўсимликлар ва ҳайвонларнинг ривожланишига салбий таъсир этиши, экологик муаммоларнинг кескин ёмонлашувига олиб келган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқни ўрганиш бўйича. –Тошкент: “Маънавият”. 2017. –Б. 89.
2. Курбанова З.И. Становление и развитие этнографической науки в Каракалпакстане. (1920-2000 гг). Дисс.канд, мед.наук. –Нукус. 2002. 164.с.; Бектемиров К. Обеспечение развития региона в условиях экологической напряженности (на примере Республики Каракалпакстан). Дисс..док., мед., наук. –Нукус. 2008. 290.с.; Адилханова А. Н. Дисбиотестические нарушения микрофлоры кишечника детей Каракалпакстана и их коррекция. Дисс.канд, мед. наук..(PhD).–Ташкент: 2012.130.с.;
3. Нарбаев Ш.К. Совершенствование организационно-экономических основ формирования системы пастбищепользования(на материалах Республики Каракалпакстана). Дис..канд. экон..наук. –Тошкент: 2018. –С. 18.
4. Адилханова А. Н. Дисбиотестические нарушения микрофлоры кишечника детей Каракалпакстана и их коррекция. Дисс.канд, мед.наук..(PhD).–Ташкент: 2012.-С. 17.
5. Турымбетова М. Т. Эффективность новых методов управления в охране здоровья матерей и детей в Республике Каракалпакстан. Дисс.,док.мед.,наук. –Тошкент: 2007. –С. 35.
6. Johannes Linn. Central Asia Human Development Report. Slovakia. Bratislava. 2005. –Р. 99.
7. Шамамбетов Б. Аграрное развитие Республики Каракалпакстан в 1965-1985 гг. Опыт и проблемы.Автореф..дисс.канд.ист.наук. –Тошкент: 1994.-С. 27.



INSONIYAT SIVILIZATSIYASIDA MUQADDAS "AVESTO" VA ZARDUSHTIYLIK TA'LIMOTINING O'RNI

Mingbayeva Feruza Mamarajabovna

"Termiz" davlat muzey- qo'riqxonasi bolimi mudiri
normurodov.oibek@mail.ru

Umbarov Xasan Raxmonovich

"Termiz" davlat muzey - qo'riqxonasi ilmiy xodimi
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Zardushtiylik ta'lomi nafaqat insonparvarlik g'oyalarini birinchi bo'lib ilohiyashtirib, dunyoviy hayotni muqaddaslashtirgan, balki uning asosiy aqidalari keyingi jahon dinlari – xristianlik va islomning aqidaviy va ibodat qoidalariga ham zamin bo'lgan deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Zardushtdan, xristianlik, tog'u tosh, , tarixiy, ezgulik, insonparvarlik g'oyalari, qadimiy madaniyati.

G'arb tarixiy manbalarida keltirilishicha, mashhur islohotchilar va ma'rifatchilar davri eng zo'r va ajoyib Renessans (uyg'onish) deb nomlangan davrni antik Rim va Yunoniston madaniyati bilan bog'lanmasdan islohotchilik harakati O'rta Osiyoning buyuk farzandi Zardushtdan boshlangan deyilsa, haqiqatga yaqinroq bo'lar edi. Chunki uning ta'lomi nafaqat insonparvarlik g'oyalarini birinchi bo'lib ilohiyashtirib, dunyoviy hayotni muqaddaslashtirgan, balki uning asosiy aqidalari ke-yingi jahon dinlari – xristianlik va islom-ning aqidaviy va ibodat qoidalariga ham zamin bo'lgan. Zardusht obrazi —Tavrot, —Injil va —Qur'oni karimda kuylangan payg'ambarlar taqdiringa to'g'ri kelishi tasodif emas. U muayyan tarixiy davrda O'rta Osiyoda dastlabki ijtimoiy tabaqalanish va davlatlarning paydo bo'lishi va shakllanishi jarayonlarida yuzaga kelgan. Natijada mintaqada dastavval politeizm (ko'p xudolik) va keyinchalik monoteizm (yakka xudolik) g'oyalarining umumiy qonun-qoidaga solish zaruriyatini, mavjud diniy tasavvurlarning tanlanishi, tartibga solinishiga sabab bo'lgan. Bunday zarurat O'rta Osiyo sharoitida islohotchi sifatida Zardushtni birinchi payg'ambarlardan biri qilib tarix sahnasiga ko'targan edi. Zardusht (Zaratushtra) – oq, oltin tuyalik ma'nosida berilgan, aslida uning nomi Magupta bo'lib, mil.avv. VIII asrning I choragida Quyi Amudaryo hududlarida yashagan Oriy qabilalar ittifoqiga qarashli Spitama urug'idan chiqqan Purishasp xonardonida tug'ilgan. Shu urug'ga tegishli Faroxim-ning qizi Dug'dava uning onasi hisoblanadi. Yoshligida otasi uni o'z davri-ning aqlli kishilaridan biri Barzin qurush (cho'pon)ga shogirdlikka beradi. 7 yoshdan 15 yoshgacha uning tarbiyasida bo'lib, Oriy qabilalarida keng tarqalgan, turli soha 33 tangrilarini madh etuvchi yashtlarini yod oladi. Oriy qabilalari o'rtasidagi ziddiyatlarga ko'pincha ko'p xudolik sabab bo'lardi. Buni tushungan 23 yoshli Zardusht butun olamning qudratli hukmdori Axura Mazdaga, ya'ni yakka xudoga itoat etish lozim degan qarorga kelib, bu g'oyani o'z urug'i va qabiladagilari orasida targ'ib qila boshlaydi. Lekin odamlar ming yillab sig'inib kelgan ko'pxudolik o'rniga yakka xudoga sig'inishga o'tishi nihoyatda mushkul edi. Shu bois, Zardusht qabiladoshlari tomonidan badarg'a qilinadi. Bir necha yillar cho'lu biyobon, tog'u tosh, shaharu qishloqlarni kezib, so'ng o'z yurtiga qaytib, qabiladoshi, lekin boshqa urug'dan chiqqan qizga uylanib, uch o'g'il va uch qiz ko'radi. Qizlari: Frini, Trini, Purichisto, o'g'illari: Istavatr, Uruvatr, Xurchitra ekanligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Mustaqil Baxtar davlatining hukmdori Gushtasp saroyiga borgan Zardusht uchun o'z ta'lomitini, maqsadlarini ro'yobga chiqarish osonroq keladi va bu diniy ta'lomit tez orada butun mamlakatga va sekin-asta atrof mamlakatlarga yoyila boshlaydi. Zardushtiylik ta'lomi ko'p adabiyotlarda turli nomlar bilan ataladi. Masalan, —Mazdaparastlik– bunda ma'rifatchilar davri eng zo'r va ajoyib Renessans (Uyg'onish) deb nomlangan davrni antik Rim va Yunoniston madaniyati, asosan, yagona tangri shuningdek, tarixiy, ilmiy adabiyotlarda bu ta'lomit haqida Zardushtiylik, zaratushtrizm, otashparastlik atamalari ham qo'llaniladi. Zardushtiylik ta'lomi Yevropada yunoncha —astron (yulduz) so'zi bilan bog'liq zoroastrizm nomi bilan mashhur. Bir qator olimlarning fikricha, Zardusht o'z ta'lomitining targ'ibotini O'rta Osiyoda boshlagan, ammo o'z vatanida muvaffaqiyat qozonmagach, bu yerni tark etishga majbur bo'lgan. Zardushtiylik dinining kitobi —Avesto Eron hamda O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati (e'tiqodi, tili, geografiyasi,



adabiyo-ti), tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Tarixchi I.M.Dyakonovning yozishicha, Zardusht uzoq sargardonlikdan keyin Drangiyo (hozirgi eron bilan Afg'oniston chegarasida) o'lkasiga borib, uning hokimi (kavi) Vishtaspa huzuridan panoh topgan. Mahalliy hokim unga yangi diniy ta'limotni targ'ib qilishga yordam bergan. Zardushtiylikning eng muhim belgisi, uning dualistik xarakterga ega ekanligidir. Unda yorug'lik, ezgulik xudosi Axura mazda (Ormuzd) va qorong'ulik, yovuzlik xudosi Angra Maynyu (Aximan) orasidagi doimiy kurash yotadi. Asli Zardusht dini O'rta Osiyo qabilalarining qadimiy xudolari obrazidan kelib chiqqan. Ikki xudo – Varuna va Mitra – ilk xudolarning boshida turgan. Bu juftlikda jamoa va davlat yaratgan qonun-qoidalarni ifodalovchi obraz Varuna jamiyat axloqiy tartiblarini buzgan kishilarni jazolovchisi, Mitra esa insonlarga yaqin va u kishilar o'rtasidagi ahd-paymon, do'stlik xudosi sifatida tasvirlanadi.

Bunda inson muammosi va mavqeい uning ezgulik va yovuzlikka munosabati bilan o'lchangan. Zardusht ta'rificha, barcha kishilar ezgulik yo'li va yovuzlik yo'lini ixtiyoriy ravishda tanlashadi. Bu axloqni erkin tanlashda tarixiy burilish davri, bir turmush tartibidan boshqasiga o'tish uchun xarakterli bo'lgan shaxs ozodligi o'z aksini topgan. Zardusht inson mavqeini ulug'lab, o'z nazdida haqiqat, ya'ni to'g'ri turmush tarzi tinch mehnatdan iborat, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu dunyoda ilohiy kuchlar marhamati va narigi dunyoda katta qurbanliklar sharofati bilan baxtga erishish mumkin emas. Tinch mehnat, boyliklarni jamg'arish va ularni muhofaza qiladigan tejamkorlik ham Zardusht yaratgan Arta (haqiqat tartib)ning mazmunini tashkil etadi. Bu ta'limotda inson mavqeい yuksaklikka ko'tarilgan. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan ikkita: mehnat va tinchlik g'oyasi juda ulug'langan.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston tarixi. Sagdullaev A., Eshov B. tahriri ostida. Toshkent. Universitet, 1997, 2-nashri, 1999.
2. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1990.



O'RTA OSIYO VA YEVROPA MEZOLIT DAVRI MADANIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Pardayeva Shaxriniso Turayevna

"Termiz" davlat muzey - qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi
normurodov.oibek@mail.ru

Sariyeva Gulnora Irgashevna

"Termiz" davlat muzey- qo'riqxonasi ilmiy xodimi
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo xududida qadimgi tosh, bronza davrlariga oid ko'plab ibtidoiy manzillar, qabrlar, qadimgi davrga oid shaharlar qoldiqlari o'rganilib, uning natijalari ilmiy jamoatchilikka e'lon qilingan deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ibtidoiy manzillar, qabrlar, tarixiy, ezgulik, arxeologiyani tarixi, qadimiy madaniyati, tosh, bronza.

Markaziy Osiyo xududi xozirgi O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston mustaqil davlatlari va Qozog'iston davlatining janubiy qismi xududlari qadimdan boshlab insoniyatning ilk madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Rim tarixchisi Trog Pompey "O'rta Osiyoliklar qadimiylikda Misrliklar bilan baxslasha oladilar" deb qayd etgan edi. Markaziy Osiyo xududida qadimgi tosh, bronza davrlariga oid ko'plab ibtidoiy manzillar, qabrlar, qadimgi davrga oid shaharlar qoldiqlari o'rganilib, uning natijalari ilmiy jamoatchilikka e'lon qilingan edi. Markaziy Osiyo xududida sho'rolar hokimiyati davrida arxeologik tadqiqotlar olib borilib, uning natijalari M.J.Jo'raqulov "O'rta Osiyoning ibtidoiy arxeologiyasi (1984 y.) J. Kabirov, A.S.Sagdullaevlarning "O'rta Osiyo arxeologiyasi (1990) o'quv qo'llanmalarida aks ettirilgan.

Mezolit – o'rta tosh davri bo'lib, yunoncha mezos-o'rta, litos – tosh demakdir.

So'nggi paleolit davri mezolitni boshlanishi bilan ulug' muzliklar (Mindilov, Ris, Vyuri) eriy boshlaydi. Iqlim barqarorlashib, o'simliklar va hayvonot dunyosi asta-sekin hozirgi zamon xayvonlari va o'simliklari qiyofasiga kirib boshlaydi. Demak, tabiatdag'i xayvonot dunyosidagi bu buyuk o'zgarishlar bilan yangi davr, ya'ni mezolit davri boshlanadi. Olimlarning fikricha bu davr mil avvalgi 12-7 ning yillarda boshlanib, mil avval 6-5 ming yillargacha davom etgan. Muzlik turlari bilan shimolda Boltik dengizi hozirgi chegarasiga yaqin bo'lgan chegarani tashkil etgan va katta kichik bo'lgan botqoqliklar paydo bo'lgan. Janubiy rayonlarda keng yaproqli dariyat o'rmonlari vujudga kelgan. Volga, Don, Dnepr daryolarining quyi oqimidan janubroqda Qozog'iston, O'rta Osiyon va janubiy Sibir rayonlarida hayvonlar uchun yaylov-cho'l zonasini vujudga kelgan, muzlikni erishi bilan shimaldan janubga kelgan shoxdor bug'ular endi shimalga ko'chib o'tib boshladи. Uzun junli mamontlar ham tugab bu yirik hayvonlar, ya'ni makrolitlar o'rniga kichik tez chopar mikrolitlar vujudga keldi. Bu hayvonlarni vujudga kelishi o'q yoyni kashf etilishi bilan bog'lik edi. Ya'ni bu bilan insoniyat yirik hayvonlardan qo'rqish havfini tugatdi va ovchilikni yangi usullarini kashf etdilar va ovchilik- ibtidoiy kishilarning hayot manbaiga aylandi. Xayvonlarni qo'liga o'rgatish boshlandi. Birinchi qo'liga o'rgatilgan hayvon esa it edi. Bu davr odamlari o'simlik ildizi bilan emas, balki mazali mevalari tirikchilik qiladigan bo'lganlar. Suyakdan qurollar yasalgan (qarmoq). Daraxt novdalardan savatlar to'qiganlar mezolit davrida o'troq hayot tarzi boshlangan va yangi muzlikdan bo'shagan yerlarni o'zlashtirishga kirishganlar, insoniyatni mehnat qurollari ham takomillashib har xil geometrik shakldagi kichik tosh mikrolit qurollari paydo bo'ldi. Dastlab bu qurollarni Fransiyani janubida yashagan arunta qabilalari ishlatganlar chunki 1887 yilga arxeologik tekshirishlar natijasida aniqlangan. Mezolit davrida O'rta Osiyoda ham iqlim qulay bo'lib, 1970-80 davrlarda Islomov o'rganib Sux yaqinidan Obishir manzilgohini o'rgangan. G'orning quyoshga qaragan tomonida ungurlar bo'lib Obishir va Obishir-5 dan mezolit yodgorliklari topilgan. Farg'ona vodiysidan 100 dan ortiq manzillar topilgan. Yana Toshkentning ariqamish tumanidagi Bo'zsuv soyining 2 irmog'i qo'shilishi joyidagi Qo'shilish manzilgoxi aniqlandi. Surxondaryo viloyatidan Ayritom, Kattakurg'on, Zaranjukchut Dukanxona, Eski Termiz, Podaxona, Oqtosh yodgorliklari aniqlandi. 1930 yilda G. F. Parfinov Machay g'orini tekshirdi. 1970-80 yillarda Islomov shu yerda yana qazilma ishlarini olib borib, madaniy qatlarni aniqladi. Bu yerdan topilgan 80% qurollari ovchilik va xayvon terisini ishslash qurollari bo'lgan. Bu qurollar mil avv 7-6 ming yillarga borib taqaladi. Lekin bu asrda o'rta va



yaqin sharqda neolit davri gullab yashagan davri bo‘lgan.

Surhondaryo viloyatining Boysun tog’ida Mochoy g’or-manzili-yuqori va o’rta Mochoy qishloqlari o‘rtasida joylashgan uning kengligi-20m, chuqurligi-2, balandligi 3,5-5 m. Madaniy qatlamda tosh va suyak qurollari topilgan. Ayirtom-Termiz shaharidan 18 km sharqda Amudaryoning o’ng sohilida joylashgan.

Farg‘ona vodiysining janubidagi katron tog‘ining janubida Obishir II, Obishir V makonlari o‘rganildi. Obishir II – Xaydarkon shaxaridan 5 km uzoqlikda joylashgan, uning kengligi 25 m, balandligi 12, chuqurligi-6 m. Obishir 5- Obishir II yaqinida joylashgan, uning kengligi-8 m, balandligi10, chuqurligi-6 m. Bu ikki g’or-makon qatlamlaridan parrakchalar, pichoq qadomalari, qirg’ichlar, techgichlar, mikrolitlar, bigizlar, o’roq- randalar topilgan.

Markaziy Farg‘ona hududida mezolit davri manzillari ko‘plab o‘rganilgan. Shulardan: Shurkul, Achchikkul, Yangiqadam, Zambar, Toypokkul, Damko‘l, Boskum kabi ochiq shakldagi manzillar bo‘lgan. Zarafshon voxasida mezolit davri manzillari o‘rganilgan.

Demak, kishilik jamiyatni tarixining juda katta davri arxeologik manbalarga tayangan holda qayta tiklab talqin etiladi. Zero, arxeologiyani tarixdan ajratib, yordamchi fan tarzida ikkinchi o‘ringa surib bo‘lmaydi. keyingi bir asrda arxeologiya sohasida qo’lga kiritilgan ulkan yutuqlar bu fikrni to‘la-to‘kis tasdiqlaydi. Binobarin, boshqa biron fan kishilarning dunyo haqidagi tasavvurlarini arxeologiyachalik o’zgartirib yubora olmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Arxeologlar hikoya qiladi. To‘plam. Toshkent, 1974.
2. Kabirov J., Sagdullaev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1990.



**"TEMUR TUZUKLARI" –MILLIY DAVLATCHILIGIMIZ TARIXINING NA'MUNASI
MAVZUSINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

Eshova Zilola Qodirovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
24-umumi o'rta ta'lim maktabi tarix
fani o'qituvchisi (+998907113574)

Ibrohimova Zilola Raxmatovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
24-umumi o'rta ta'lim maktabi tarix
fani o'qituvchisi (+998912451372)

Annotatsiya: Amir Temur va u barpo etgan temuriylar davlati nafaqat o'sha davr uchun ballki hozirgi davlatchilikda o'zining alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Temuriylar davlati o'zbek davlatchilik tarixining ajratib bo'lmas qismi bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, markazlashgan davlat, buyuk ipak yo'li, Anqara, Boyazid 1 Yildrim, Yevropa xaloskori, Vaqf yerlari, arkbegi, Devonbegi, Oltin O'rda.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov Amir Temur davrini boshqatdan o'rganishimiz lozim. Nega deganda Amir Temur tuzuklarini o'qisam, xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolarigajavob topganday bo'laman, - deb ta'kidlagan edi. Sohibqiron Amir Temur hazratlari - millatimizning suyangan og'laridan biri, xalqimizning abadiy faxri va g'ururidir. U Turonzaminni mo'g'ullar istilosini asoratidan ozod etdi, mamlakat va xalq daxlsizligi, tinchligi va osoyishtaligini, obodlikda va farovonlikda rivojlanishini to'liq va ishonchli kafolatlay oladigan markazlashgan kudratli davlatni vujudga keltirdi, uning amru irodasi ostida bu yerda hayot har taraflama gullab-yashnadi. Turonzamin Amir Temur davrida Buyuk Ipak yo'lining qaynoq, gavjum, fayzli-barakali go'shalaridan biriga aylandi. Soxibqiron sultanati Yer yuzidagi ko'pgina davlatlar va ellar bilan siyosiy-diplomatik, iqtisodiy-savdo va madaniy aloqalar o'rnatdi. Shu boisdan ham, Amir Temur va temuriylar davri dunyo ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tarixidagi buyuk yuksalish davri, deb baholab kelinmokda.

O'tgan asrlar mobaynida jahoning 50 dan ortiq davlatlarida Amir Temur mavzuida behad ko'p tarixiy, adabiy va san'at asarlari yaratilgan. Ularni bir joyga to'plashning imkonini bo'lsa, dunyoning eng mahobatli kutub-xonalaridan biri dunyoga kelar edi. Amir Temur nafaqat o'z vatanini chingiziy mo'gullar istibdodidan xalos qildi, ayni paytda, u mo'g'ullar istibdodining quadratli tayanchi bo'lgan Oltin O'rdani tor-mor etib, Sharkiy Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, Rossiya va Ukrainianing chingiziy mo'g'ullar iskanjasidan qutulib chiqishi uchun qulay sharoit yaratdi. Shuningdek, Amir Temur 1402 yilda Anqara yonida Boyazid I Yeldirim ustidan zafarga erishgach, butun Yevropa turk sultoniga qaramlikdan qutulib, keying'i ellik yil mobaynida emin-erkinlikda nafas olib yashadi. Shu sababli, o'z davrida yevropaliklar tomonidan Amir Temur «Yevropa xaloskori», deb e'tirof etilgan edi. Hatto, minnatdorchilik ramzi sifatida, yevropaliklar uning ot ustida mag'rur turgan holatdagi oltin xaykalchasini yaratishganligi tarixdan ma'lum.

Amir Temur xukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni ozik-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarganlar. Bu davrlarda yerga egalikning ba'zi turlari mavjud bo'lib, ular suyurg'ol yerlar, vaqf yerlari, jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari taxxon unvonini olib, ular davlatga soliq to'lashda ba'zi imkoniyatlarga ega bo'lganlar. Vaqf yerlari masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod qilinganlar.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mo'minov. I "O'rta Osiyo tarixida Amir Temurning tutgan o'rni va roli" T. FAN 1968 y
2. Ibn Arabshox "Amir Temur tarixi" T. Fan 1992
3. Temur tuzuklari T. Fan 1992
4. Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T.: 1991.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000